



## 2021- yilning yanvar oyi uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



**387,7**  
mlrd. so‘m

**100,1 %**

Joriy yilning yanvar oyida Qashqadaryo viloyatida jami **387,7** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **100,1 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo`linadi.

**Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2021- yilning 1- fevral holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3334 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 255 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qu rish ishlarining o‘tgan yilga nisbatan **5,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **69,8 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **24 ,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,4 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **13,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,8 %**) o‘sishidir.



### Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)


holatiga ko‘ra:

2021- yil  
yanvar

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

	<b>01.02.2020-yil</b>	<b>01.02.2021-yil</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan, % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3079</b>	<b>3334</b>	<b>108,3</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	804	848	105,5
<b>Shahrisabz</b>	132	139	105,3
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	141	148	105,0
<b>Dehqonobod</b>	137	152	110,9
<b>Qamashi</b>	170	181	106,5
<b>Qarshi</b>	363	394	108,5
<b>Koson</b>	257	279	108,6
<b>Kitob</b>	125	137	109,6
<b>Mirishkor</b>	75	83	110,7
<b>Muborak</b>	187	191	102,1
<b>Nishon</b>	105	121	115,2
<b>Kasbi</b>	129	152	117,8
<b>Chiroqchi</b>	180	206	114,4
<b>Shahrisabz</b>	116	116	100,0
<b>Yakkabog'</b>	158	187	118,4


Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma**

**'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh. (25,4%), Qarshi (11,8%) va Koson (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **35,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **157,4 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,2 %** punktga ko'payib, **9,3 %** ni tashkil etdi.


2021- yilning yanvar oyida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan  
bajarilgan qurilish ishlari hajmi

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringning jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shahrisabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,0** % i yoki 2020-yilning yanvar oyiga nisbatan **4** marta ko'p), Qarshi shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **37,1** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **176,1** %), va G'uzor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,9** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,6** % ) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlaringning umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,2 %**i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **4,8** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **95,2 %**ni tashkil etgan holda **245,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,5 %** ni tashkil etdi yoki **106,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **99,5 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlaring umumi hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **15,2** mlrd. so'm, nodavlat mulkchili kdagi tashkilotlar tomonidan esa **372,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,9 %** va **96,1 %**ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2021- yil yanvar oyida)**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>387,7</b>	<b>100,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	97,0	102,3	25,0
<b>Shahrisabz</b>	31,5	161,1	8,1
<i>tumanlar:</i>			0,0
<b>G'uzor</b>	37,7	96,5	9,7
<b>Dehqonobod</b>	12,2	98,1	3,2

<b>Qamashi</b>	9,6	96,6	2,5
<b>Qarshi</b>	36,1	96,0	9,3
<b>Koson</b>	24,9	80,2	6,4
<b>Kitob</b>	27,6	97,0	7,1
<b>Mirishkor</b>	10,6	98,0	2,7
<b>Muborak</b>	17,0	95,8	4,4
<b>Nishon</b>	13,8	95,8	3,6
<b>Kasbi</b>	12,0	97,7	3,1
<b>Chiroqchi</b>	28,4	96,7	7,3
<b>Shahrisabz</b>	11,2	96,5	2,9
<b>Yakkabog‘</b>	18,1	97,1	4,7

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2021- yil yanvar

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,7 % i yoki **262,6** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

67,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **26,2** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 10,0 % ni tashkil etdi

10,0 %


Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **136,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 51,9 % ni tashkil etdi.

51,9 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **100,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.

38,1%

## Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmi qo'shgan holda , turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil  
yanvar

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

11

2021- yilning yanvar oyida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd. so'm.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 75 221-32-47



## QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil  
yanvar

Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari

14